



FUQARO MUHOFAZASI BO'YICHA AHOLINI O'QITISHNI TAKIL ETISH

Dadabayeva Naziraxon Abdurazaqovna

*Andjon viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Hayot faoliyati xavfsizligi o`quv markazi
o`qituvchi Telefon: 93 444-13-66*

Favqulodda vaziyatlarda halokatlarning oldini oluvchi zaruriy chora -tadbirlar qanchalik tez bajarilsa, ularning talofatga olib keluvchi ta'sirlarini bartaraf etish shunchalik oson kechadi. Buning uchun qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar kompleksini olib boruvchi kuchlar va vositalar doimiy tayyor bo'lishi lozim.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni targ'ib etishda asosiy vazifalar qanday, bunda targ'ibot nimalardan iborat bo'lishi kerak?

Birinchi vazifa. Tinchlik davrida va harbiy harakatlarda favqulodda vaziyatlar sodir bo'lishi mumkinligini va ular naqadar xavfli ekanligini tushintirish.

Ikkinchi vazifa. Fuqaro muhofazasining roli ortib borayotganligini, favqulodda vazifalardan muhofaza qilish haqidagi davlat hujjatlarining mazmunini, aholining fuqaro muhofazasiga oid huquqlari va vazifalarini tushintirish.

Uchinchi vazifa. Aholiga favqulodda vaziyatlarda harakat qilishni o'rgatishga hissa qo'shish.

To'rtinchi vazifa. Fuqaro muhofazasi ilg'or tajribasini aholi o'rtasida keng targ'ib qilish.

Beshinchi vazifa. O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi tarixi va an'analarini aholi o'rtasida tizimli targ'ib qilish.

Fuqaro muhofazasi xodimlari davlat va jamoat tashkilotlarini, ijodiy jamoalarni, turli fondlarni jalb qila olsalargina targ'ibotni yo'lga qo'yish shunchalik muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Targ'ibot-o'zi nima?

Targ'ibot xushyorlik oshirilishi kerakligini, oldini olish tadbirlari o'tkazilish muhimligini, odamlarda yuksak ma'naviy-ruhiy fazilatlarini tarbiyalash zarurligini, shuningdek beparvolik ishlab chiqarish, ijtimoiy sohaga og'ir shikast yetkazishi, eng yomoni odamlar qurbon bo'lishi mumkinligini eslatib turishi kerak.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lish ehtimoli mavjudligi to'g'risida aholi o'rtasida tushintirish ishlarini muntazam ravishda olib borish kerak.

Lekin, bunda odamlarni qo'rqitmaslik, balki bu xavfni unitmaslik, favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda muhofazalanishga tayyor turishga da'vat etmoq kerak.

Shunda favqulodda vaziyatlar oqibatida yetadigan zararlar eng kam darajada bo'lishi mumkin. Mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar mehnat jamoalarida, turar joylarda ana shu to'g'risida suhbatlar o'tkazish, aholiga va jamoaga favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda hatti-harakat qoidalarini tushintirish kerak.

Masalan, Yaponiyada har yangi o'quv yili maktablar va oliy o'quv yurtlarda odamlarning zilzila sodir bo'lganda hatti-harakatlari haqidagi mashg'ulotdan boshlanadi. Fuqaro muhofazasi targ'ibotini tashkil etish shakllari, usullari va vositalari.



Fuqaro muhofazasi bo'yicha targ'ibot qanday ahvoldaligi tabiiyki, birinchi galda barcha darajadagi fuqaro muhofazasi boshliqlari zimmasida bo'ladi.

Fuqaro muhofazasiga targ'ib qilishning quyidagi shakllari mavjud:

1. Og'zaki targ'ibot.

2. Ommaviy axborot vositalari (matbuot, televidenie, radio).

3. Kino va vidofilmlar.

4. Ko'rgazmali vositalar (plakat, stend, fotomontaj, vitrina). Og'zaki targ'ibot eng ta'sirchan shakllardan biri hisoblanadi.

Odamlar bilan shaxsiy muloqatda bo'lishga asoslanib, bunday targ'ibot muayyan jamoa oldida turgan fuqaro muhofazasi vazifalarini, ularni hal etish usullarini odamlarga tushinarli dalil va misollar asosida tushintirish, kamchiliklar va qiyinchiliklar, ularni yengib o'tish yo'llari haqida ochiqdan ochiq fikr yuritish imkonini beradi. Og'zaki targ'ibotda ma'ruza, suhbat, savol-javob kechalari, fuqaro muhofazasi faxriylari va mutaxassislari bilan uchrashuvlardan foydalaniladi.

Targ'ibotchi ishlatayotgan ilmiy va texnik atamalar va tushunchalarni tinglovchilar to'g'ri anglashini ta'minlaydigan qilib bayon etishi, fikrning mantiqiyliigi, tushintirilayotgan qoidalarning turmush bilan chambarchas bog'likligiga yorqin misollar keltirishi, statistika ma'lumotlariga tayanishi, nutqining jo'shqinligi va hokozalar targ'ibiy chiqishlarning ishonchliligini ta'minlab beradi. Rahbarlar, mutaxassislarning o'z jamoalari oldida fuqaro muhofazasi mavzusida so'zga chiqishlari alohida ahamiyatli ekanligini qayd etmoq kerak.

Ular fuqaro muhofazasi tadbirlarini o'tkazishda shaxsan namuna ko'rsatishlari lozimligini unitmaslik lozim. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasi targ'ibotida hozirgi vaqtda ommani qamrab olishi va ularga uzluksiz ta'siri jihatidan eng ta'sirchan bo'lgan ommaviy axborot vositalaridan televidenie va radiodan foydalanishning roli kattadir.

Fuqaro muhofazasiga oid ishlar ahvoli, FVDT kuchlari va vositalarining favqulodda vaziyatlarda harakatlari haqida ommaviy vositalari tezkor va ishonchli axborot bilan ta'minlanib turishlari kerak.

Fuqaro muhofazasi mavzusida kitoblar va risolalar nashr etishning va ulardan tushintirish ishlarida foydalanishning ahamiyati kattadir. Ularni targ'ib etish uchun kutubxonalarda kitobxonlik anjumanlari, kechalar va boshqa tadbirlar o'tkazilib turishi lozim. Endilikda fuqaro muhofazasi targ'ibotini kino, video materiallardan keng foydalanmay turib tasavvur etish qiyin. Ko'rgazmali vositalardan foydalanib, fuqaro muhofazasini targ'ib qilish fuqaro muhofazasi o'quv punktlari, kabinetlari, sinflar va burchaklarini jihozlashda, turli stend, fotomontaj tashkil etishda, shuningdek aholini favqulodda vaziyatdagi harakati bo'yicha plakatlar chiqarishda o'z ifodasini topmoqda.

Ko'rgazmali targ'ibotda respublikamiz fuqaro muhofazasi tizimi haqida, ishlab chiqarish avariyalari va tabiiy ofatlar, jamoa va yakka himoya vositalari, qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar, o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlari haqida axborot bo'lishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm jahonning ko'p mintaqalarida, mamlakatlarida, jumladan markaziy Osiyo mintaqasida va uning tarkibidagi O'zbekistonga ham xavf solmoqda.



1999 yil fevral oyida respublikamizning bosh maydonida ko'plab odamlar qurbon bo'lishiga olib kelgan portlashlarni, 2000 yil yozida Surxondaryoda terrorchi jangarilarning beboshliklarini, ekstremistlarning yana boshqa qonli ishlarini, shu bilan birga inson hayotiga xavf solgan tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar ya'ni 2020 yildagi Sirdaryo viloyatining Sardoba suv omborida sodir bo'lgan texnogen xususiyatli favqulodda vaziyat, 2023 yil 6 fevral kuni Turkiya va Suriya davlatlarida sodir bo'lgan zilzilalarni unita olmaymiz.

Fuqaro muhofazasi sohasida tayyorgarlikdan o'tayotganlar fuqaro muhofazasining hozirgi zamondagi rolini qanchalik to'g'ri tushinsalar, ularning bu sohadagi bilim, mahorat va ko'nikmalari shunchalik mustahkamroq va mukammalroq bo'ladi. Tayyorgarlikda o'tgan fuqarolar nazariy bilimlarini favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan amalda qo'llashlari albatta foydadan xoli bo'lmaydi.

Chunki hozirgi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatda har bir fuqaro tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar xarakter qilishga va sodir bo'lganda ularni oqibatlarini bartaraf tishga tayyor bo'lmoqliklari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston.2003 yil.

2. "Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish to'g'risida". 1999 yil 20 avgust.

4. "Fuqaro muhofazasi to'g'risida". 2000 yil 26 may.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 20 oktyabrdagi "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi 185-sonli Farmoni

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 20 oktyabrdagi "Favqulodda vaziyatlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 310-sonli qarori.

II. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari

7. "Texnogen, tabiiy va ekologik favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida" (1998 yil 27 oktabr 455 sonli).

8. "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida (2019 yil 9 sentabr 754 sonli);

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora tadbirlari to'g'risi"dagi 171-sonli qarori.

III. Uslubiy qo'llanmalar.

10. A.Q.Nurxo'jaev, M.Yu.Yunusov, I.X.Xabibullayev "Favqulodda vaziyatlar va muhofazasi tadbirlari", Toshkent, 2001 yil.



11. I.Raxmon “Favquloddagi vaziyatlarda birinchi shoshilinch yordam”, Toshkent,2004 yil.
 12. K. T. Tursunov. “Sovremennoe sostoyanie izucheniya, prognoza seley i snejnix lavin v Uzbekistane”., Tashkent, IGZ, 2006 god.
 13. A. Nurxodjayeov. “Tabiiy ofatlar, hosil bo‘lishi, tasnifi, aholi va hududlarni muhofaza qilish qoidalari”, Toshkent, FMI, 2006 yil.
 - 14.. “Fuqaro muhofazasigaoid me’yoriy-huquqiy” hujjatlar, 1-tom, Toshkent, FVV, FMI, 2007 yil.
 15. G‘Yo.Yormatov, O.R.Yuldashyev, A.I.Hamrayeva. “Hayot faoliyati xavfsizligi”, Toshkent, 2009 yil.
 16. O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Guliston davlat universiteti O.Oqyigitov, N.Sadiyev Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi fanidan o‘quv-uslubiy Majmua 2013y.
- IV. Ma’ruza matnlari.
17. “Tabiiy favqulodlarda vaziyatlardan aholini va hududlarni muhofaza qilish”(ma’ruza matni). Toshkent,
 18. Sharipov J.Sh. Qo‘mondon-shtab, taktik-maxsus va kompleks o‘quv mashg‘ulotlari aholini favqulotda vaziyatlardan muhofaza qilish borasidagi tayyorgarlikning asosiy usullari mavzusidan. (ma’ruza matni). Toshkent,FMI, 2006 yil.
 19. Fuqaro muhofazasi asoslari (ma’ruzalar to‘plami). Toshkent, FMI, 2007 yil.